O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

_____ (OTM rektori)

2023 yil «30» 08

«KIYIM VA ERGONOMIKA» FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	700 000	–Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta’lim sohasi:	720 000	– Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
Ta’lim yo‘nalishi:	60721400	– Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (tikuvchilik sanoatida kreativ loyihalash va innovatsion texnologiyalar)

Toshkent – 2023

Fan/modul kodi KE145620		Semestr 3; 4; 5; 6	ECTS-kreditlar 20 (5; 5; 5; 5)	
Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4; 4; 4; 4	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Kiyim va ergonomika	240	360	600

2.

I.Fanning mazmuni:

Fanni o'qitishdan maqsad – ergonomik kiyimlarni ishlab chiqarishga joriy etishga turli assortimentdagi kiyimlarni loyihalash va ishlab chiqarish tamoyillari va usullarini tushunadigan, loyihalash va texnologik tayyorgarlik sohasida bilimga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash;

Fanni vazifasi – yangi kiyim modellarini loyihalash, iste'molchi-buyurtmachi talablarini hisobga olgan holda ergonomika bo'yicha olingan bilimlar yordamida kiyimni ishlab chiqish orqali inson uchun qulay muhit yaratish sohasida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, kiyim loyihalashda ergonomikani ta'minlovchi usullarni o'zlashtirish bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini real sharoitga qo'llash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari):

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi

1- mavzu. Kirish. "Kiyim va ergonomika" fani haqida ma'lumot

"Kiyim va ergonomika" fanining mazmuni, maqsad va vazifalari. Ergonomik tadqiqotlar tarixi. Ergo-dizaynning paydo bo'lishi. Zamonaviy ergonomik kiyimlarni loyihalash.

2- mavzu. Zamonaviy kiyim assortimenti va klassifikasiyasi. Kiyimning ergonomik hususiyatlari

Kiyim haqida umumiy tushunchalar. Kiyimning qulayligi va havfsizligi. Inson mehnat faoliyati turlarini va bajariladigan harakatlar dinamikasini tahlil qilish

3- mavzu. Kiyim loyihalashda qo'yiladigan talablar va sifat ko'rsatkichlari

Sifat ko'rsatkichlari haqida tushuncha. Zamonaviy nazorat usullari va ergonomik baholash ko'rsatkichlar. Kattalar va bolalar uchun maishiy kiyimlariga qo'yiladigan talablar. maxsus kiyimlariga qo'yiladigan umumiy talablar, harakati cheklangan insonlar kiyim uchun talablarni shakllantirish.

4- mavzu. Turli assortimentdagi kiyimlarning konstruktiv hususiyatlari

Kiyim tashqi shakli xarakteristikasi. Kiyim o'lchamlari va konstruksiyasi hususiyatlari. Kiyim shaklini aniqlovchi asosiy belgilar. Kiyimning silueti, konstruktiv, dekorativ chiziqlari.

5- mavzu. Material xossalarining kiyim loyihalashga ta'siri

Buyum konstruksiyasi va material paketi texnik parametrlarining kiyimning ergonomik va gigienik hossalariga ta'siri Material hususiyatlari va ularning kiyim shakliga ta'siri.

6- mavzu. Kiyim loyihalashda odam qomatini o'rganish usullari va hususiyatlari

Qomatning antropometrik xususiyatlari. Tananing o'lcham belgilarini olish uslubiyati. Qomat tuzilishi turlari. Tipaviydan farq qiluvchi qomatlar tavsifi. Tipaviy va notipaviy qomatlarga kiyim konstruksiyalashda dastlabki ma'lumotlarni aniqlash.

7- mavzu. Kiyim ichki shakli va konstruksiyasi

Kiyimning ichki razmerlari va odam tanasi tashqi razmerlari orasidagi mutanosiblik. Kiyimda qo'shimchalar. Bemalollik qo'shimchalari. Kiyim paketiga, material qalinligiga qo'shimchalar. Kompozitsion qo'shimchalar.

8- mavzu. Kiyim loyihalashning zamonaviy usullari

Kiyim konstruksiyalashga oid yuzalar yoyilmasi va ularning tasnifi. Kiyimlarni konstruksiyalash usullarining sinflanishi va ularning xarakteristikasi. Shakl hosil qilishning konstruktiv usullari. Kiyim tashqi ko'rinishi va asosiy uzellariga ishlov berish texnologiyasining o'zaro bog'liqligi.

9- mavzu. Kiyim ergonomikasini ta'minlashda zamonaviy vositalari tahlili

Kiyim ekspluatatsiyasi jarayoni va mehnat sharoitlari ergonomikasini o'rganish. Ergonomik kiyim loyihalashning zamonaviy usullari. Kiyim konstruksiyasini tuzishda dastlabki ma'lumotlar. Kiyim loyihalashda ishlatiladigan konstruktiv parametrlar. Bazis to'ri tushunchasi

10- mavzu. Konstruksiyaning ergonomikligini ta'minlash

Turli maqsaddagi kiyimlarni loyihalashning asosiy tamoyillari. Turli kiyimlar uchun asos konstruksiyalar va ularni qomat o'zgarishiga qarab modifikasiyalash. Moslashuvchan konstruksiya usuli.

11- mavzu. Bel kiyimlarini konstruksiyalash xususiyatlari

Bel kiyimlariga qo'yiladigan talablar. Bel kiyimlari uchun bazis to'rini qurish. To'g'ri yubka konstruksiyasini qurish. Shim konstruksiyasini qurish usullari.

12- mavzu. Yelka kiyimlarini konstruksiyalash xususiyatlari

Yelka kiyimlariga qo'yiladigan talablar. Yelka kiyimlarini konstruksiyalashda dastlabki ma'lumotlar. Bazis to'ri. Yelka kiyimlari uchun asos konstruksiyani qurish.

13- mavzu. Bolalar kiyimlarini konstruksiyalash xususiyatlari

Bolalar kiyimlariga qo'yiladigan talablar. Bolalar kiyimlarini konstruksiyalashda dastlabki ma'lumotlar.

14- mavzu. O'tqazma yenglarni konstruksiyalash hususiyatlari

O'tkazma yenglarning shakli, konstruksiyasi va konstruksiyalash usullari xarakteristikasi.

15- mavzu. Turli yoqalarning konstruksiyalash

Yoqa konstruksiyalarining tasnifi. Yopiq taqilmaga mos yoqalar. Ochiq taqilmaga mos yoqalar. Yoqaning bo'yin oniziga bog'liqligi.

16- mavzu. Kiyim nuqsonlari va ularni bartaraf etish usullari

Kiyim nuqsonlarining sinflanishi. Konstruktiv nuqsonlar. Konstruktiv nuqsonlarning paydo bo'lish sabablari. Modellashdagi texnologik nuqsonlar. Modellash va texnologik nuqsonlarni tuzatish usullari.

17- mavzu. Kiyimlarini konstruktiv modellash. Bazaviy konstruksiyani model konstruksiyaga transformasiyasi

Konstruktiv modellash (KM) uchun daslabki ma'lumotlarni tayyorlash. Bazali konstruksiyani tanlash mezonlari. Bazaviy konstruksiya (BK) dan foydalanib KM ning 4 xil asosiy turlari.

18- mavzu. BK ni shaklini o'zgartirmay KM usullari

Yangi model tuzilishining tahlili. BK ni shaklini o'zgartirmay yubka va shimni KM. Yelkali kiyimlarni KM elementlari; vitochka ko'chirish, taxlama va taqilmalar, bo'yin o'mizi shakli, cho'ntak, lifni qo'shimcha bo'laklash.

19- mavzu. BK ni shaklini o'zgartirib KM usullari

Bel kiyim detallarini konus va parallel kengaytirish. Turli shakldagi yubkalarni modellash. Yelkali kiyim detallarini konus va parallel kengaytirish.

20- mavzu. Bo'yin o'mizini konstruktiv modellash

Bo'yin o'mizini bezash elementlarini (kokile, jabo, pelerina va h.k.) KM. Kapyushonni kostruksiyalash va modellash

21- mavzu. Otqazma yenglarini KM. Yeng o'mizini KM usullari

Yeng o'mizini modellash; kengaytirish; turli shakldagi yeng o'mizlarini (chuqur, tor, kengaygan, tirqishsimon kvadrat) modellash. Turli shakldagi o'tkazma yenglarni modellash va uni modellashtirilgan o'miz bilan muvofiqlash.

22- mavzu. Yeng bichimini o'zgartirib KM usullari

Reglan va yaxlit bichilgan yenglar xarakteristikasi. Reglan bichimli yenglar konstruksiyasini o'tqazma yeng BK asosida konstruktiv modellash.

23- mavzu. Yaxlit bichimli yenglarni KM usullari

Turli xil yaxlit bichilgan yenglar konstruksiyasini o'tqazma yeng BK asosida konstruktiv modellash.

24- mavzu. Yangi kiyim hilini konstruksiyalash

Tipaviy konstruksiyani o'zgartirib yangi kiyim konstruksiyasini qurish

25- mavzu. Tipaviy tuzilishdan og'ishgan qomatlarga mos kiyimlarni konstruksiyalash hususiyatlari

Tipaviy tuzilishdan farq qiluvchi qomati tavsifi. Notipaviy qomatlarga kiyim konstruksiyalashda dastlabki ma'lumotlarni aniqlash. Qomatga bog'liq kiyim konstruktiv parametrlarining o'zgarish.

26- mavzu. Ishlab chiqarish kiyimlari klassifikasiyasi

Ishlab chiqarish kiyimlari turlari. Ishlab chiqarish kiyimlariga qo'yiladigan talablar. Kiyimning qulayligiga ta'sir etuvchi xavfli va zararli omillarni aniqlash.

27- mavzu. Maxsus kiyimlarini konstruksiyalash

Maxsus kiyimlar bazaviy konstruktiv asoslarining xususiyatlar. Ishlab chiqarish kiyimlarining to'kislik qo'shimchasi. Maxsus kiyimlarini loyixalash

28- mavzu. Turli materiallardan kiyimlarni loyihalash

Kiyim badiy-konstruktiv tuzilishining material xususiyatlariga bog'liqligi. Kompleks va noto'qima materiallardan tayyorlanadigan kiyimlarning konstruksiyasiga xos xususiyatlar.

29- mavzu. Charm va mo'ynadan kiyimlarni konstruksiyalash xususiyatlari

Charm va mo'yna kiyimlari asortimenti. Charmdan kiyimlarni konstruksiyalash. Mo'ynadan kiyimlarni konstruksiyalash

30- mavzu. Trikotaj buyumlarini konstruksiyalash

Trikotaj buyumlari assortimenti. Trikotaj polotno xususiyatlarining buyum konstruksiyasiga ta'sir etuvchi omillari. Trikotaj kiyimlarni konstruksiyalashning o'ziga xos xususiyatlari.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Zamonaviy kiyim konstruktiv tuzilishi va uni tashqi shaklini o'rganish.
2. Berilgan assortiment uchun materiallar paketini shakllantirish va konfeksion kartalarni ishlab chiqish
3. Kiyim loyihalashda qo'llaniladigan o'lcham ko'rsatkichlarni tahlil qilish.
4. Kiyimlarning tashqi va ichki o'lchamlarini hisoblash.

	15. Yaxlit yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish, maketini tayyorlash 16. Murakkab bichimli kiyim konstruksiyasini maketda tekshirish. 16. Kiyim detallari andazalarini ishlab chiqish Laboratoriya ishlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari boyicha olgan bilim va ko'nikmalarini laboratoriya ishlarini bajarishda qo'llaydilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, qo'shimcha ma'lumotlar orqali talabalar bilimini oshirish maqsadga muvofiq. **V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:** Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Zamonaviy kiyim konstruktiv tuzilishini taxlil qilish 2. Zamonaviy kiyim uchun material assortimenti haqida ma'lumot to'plash 3. Qomat nuqsonlarini kiyim yordamida ko'zdan yashirish usullari 4. Kiyim konstruksiyalashning zamonaviy usullarini o'rganish 5. Turli bichimdagi ayollar ko'ylagini konstruksiyalash xususiyatlari 6. Turli bichimdagi shimlarni konstruksiyalash xususiyatlari 7. Turli materiallardan (charm, mo'yna, plenka) kiyimlarni konstruksiyalash 8. Charmdan tikuv buyumlarni konstruksiyalash 9. Mo'ynadan tikuv buyumlarni konstruksiyalash 10. Kompleks materiallardan kiyimlarni konstruksiyalash 11. Trikotaj polotnosidan kiyimlarni konstruksiyalash 12. Erkaklar ustki kiyimini konstruksiyalash xususiyatlari 13. Bolalar kiyimini kosnstruksiyalash xususiyatlari 14. Bo'yin omizini texnik modellashtirish 15. Ayollar paltosini konstruksiyalash 16. "Myuller i sin" metodikasi bo'yicha turli kiyim konstruksiyalarini ishlab chiqish 17. Ingliz metodikasi bo'yicha kiyimlarni konstruksiyalash Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayorlash va uni taqdimot qilish, konstruksiya va loyihalash ishlarini bajarish tavsiya etiladi.
3.	**VII. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari** **Talaba bilishi kerak:** - konstruktiv modellash usullari, fan va texnika yutuqlardan foydalanib yangi kiyim modellarini individual buyurtma asosida loyihalash yo'nalishlari ***haqida tasavvurga ega bo'lishi;***

5. Kiyim loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlarni aniqlash

6. To'g'ri yubka konstruksiyasini hisoblash va qurish

7. Shim konstruksiyasini hisoblash va qurish

8. Ayollar ko'ylagi va yengi konstruksiyasini hisoblash va qurish.

9. Yoqalar va bo'yin o'mizini bezash elementlari konstruksiyalarini ishlab chiqish

10. Erkaklar ko'ylagi konstruksiyasini hisoblash va qurish

11. Murakkab bichimli kiyim konstruksiyasini qurish

IV. Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Laboratoriya mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Turli bichimdagi yubkalar konstruksiyasini mulyaj usulida loyihalash

2. Ayollar ko'ylagi konstruksiyasini mulyaj usulida loyihalash

3. To'g'ri yubka maketini tayyorlash va konstruksiyasini qomatga moslashtirish.

4. Erkaklar shimi maketini tayyorlash va konstruksiyasini qomatga moslashtirish

5. Ayollar ko'ylagi maketini kiyib ko'rishga tayyorlash va qomatda maket nuqsonlarini aniqlab bartaraf etish.

3. O'tqazma yeng yangi modeli maketini tayyorlash va konstruksiyasini qomatga moslashtirish

4. Yoqalar va bo'yin o'mizini bezash elementlari maketini tayyorlash va konstruksiyasini qomatga moslashtirish

5. Erkaklar ko'ylagi maketini kiyib ko'rishga tayyorlash va konstruksiyasini qomatga moslashtirish

6. Erkaklar ustki kiyimi maketini tayyorlash va konstruksiyasini qomatga moslashtirish, nuqsonlarini aniqlab bartaraf etish

7. Zamonaviy moda yo'nalishi tahlili asosida bel kiyimlarini texnik modellash (shim va yubka)

8. Bel kiyimlari yangi modeli maketini tayyorlash

9. Zamonaviy moda yo'nalishi tahlili asosida ayollar kiyimini texnik modellash

10. Ayollar kiyimi yangi modeli maketini tayyorlash

11. O'tqazma yenglarni texnik modellash

12. Yeng modeli maketini tayyorlash

13. Yoqalar va bo'yin o'mizini bezash elementlari maketini tayyorlash

14. Reglan yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish, maketini tayyorlash

	- iste'molchi va ishlab chiqarish talablarini hisobga olgan holda turli materiallardan yelkali va bel kiyim konstruksiyasini ishlab chiqishni, turli kiyimlarning bichimi va tashqi shakliga, konstruksiyasiga qo'yiladigan talablarni, odam qomatida kiyim sifatini baholash usullari va mezonlarni, bazali va asos konstruksiyani modifikatsiyalash orqali erkaklar va ayollar kiyimlarini konstruktiv modellash usullarini, model eskizlarini tahlil qila olish va konstruktiv modellashning ratsional usullaridan foydalanishni, kiyim detallari andazalari chizmasini qurishni, kiyim detallari andazalarini ko'paytirish usullarini, materiallar sarfi normasini aniqlash va andazalar joylashmasini bajarishga doir texnik talablarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;*** - tikuvchilik sanoati va unga aloqador tarmoqlarning holati va rivojlanish istiqbollarini ko'rish, odam qomatiga mos kiyim maketini yaratish, kiyimlarni buyurtmachi talabi asosida konstruksiyalash, individual buyurtmalar uchun yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VIII.Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • laboratoriya mashg'ulotlari; • interfaol keys-stadilar; • kichik guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • jamoa bO'lib ishlash; • video materiallar tayyorlash; • individual ishlash.
5.	**IX. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarini to'liq o'zlashtirish, fan yuzasidan mustaqil fiklay olish, mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayorlash va uni taqdimot qilish, nazorat turlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish.
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Kamilova X.X. Xamrayeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash». Darslik. – T.: «Cho'lpon », 2011 y. – 400 b 2. Madjidova Sh. G., Ulkanbayeva G.D. "Tikuv-trikotaj buyumlari texnologiyasi". O'quv qo'llanma. T., "Adabiyot uchqunlari"2018 y. 3. Kim Kyong. Pattern Making For Women's Clothes. "Anjungki, Korea publication". 2016y. P-367.

	Qo‘shimcha adabiyotlar: 4. Aripdjanova D.U. Turli qomatlarga kiyimlarni konstruktsiyalash. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Bilim va intellektual salohiyat” nashriyoti, 2021, 184 bet. 5. Куренова С.В. Конструирование одежды:Учебное пособие. Изд. 3-е /С.В.Куренова, Н.Ю.Савельева – Ростов н/д: Феникс, 2006. – 480. 6. Конопальцева Н.М., Рогов П.И. Конструирование одежды из различных материалов. Учебное пособие. М.: Академия, 2007. – 380. 7. Е.Б.Булатова, М.Н.Евсеева. Конструктивное моделирование одежды., «Академия», 2012 г. **Axborot manbalari:** 8. http://www.ziyonet.uz -Ta’lim portali. 9. http://titli.uz-Toshkent tO‘qimachilik va yengil sanoati instituti sayti. 10. lex.uz -C‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 11. http://ziyonet.uz 12. www.liveinternet.ru 13. www.book.style.ru
7.	Fanning O‘quv dasturi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institut Kengashining 2023 yil “29” 08 dagi “1”-sonli bayonnomasi bilan maqullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar:** Ulkanbayeva G.D. – TTYeSI, «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va texnologiyasi» kafedrasi dotsenti
9.	**Taqrizchilar:** Tashmuhamedova M.B. -«Nurafshon Nur» HK direktori Yunusxodjayeva X.M. - TTYeSI, “Kostyum dizayni” kafedrasi dotsenti